XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 6 - mart VI-80-45-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarkand shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan) va xalq deputatlari shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-77-251-7-107-K/22-sonli “Samarqand shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, shuningdek, shahar hokimligiga boshqarma va tashkilotlardan, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni inobatga olib hamda shaharda bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida shahar mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish yuzasidan shahar hokimi o‘rinbosarlari (A.Egamov, R.Olimov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 8 va 14-fevraldagi bildirishnomalarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimi o‘rinbosarlari (A.Egamov, R.Olimov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev) ning 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **8 ta** tadbirlar uchun **844 884,1** (sakkiz yuz qirq to‘rt million sakkiz yuz sakson to‘rt ming bir yuz so‘m) **ming so‘mlik** mablag‘lar ilovaga muvofiq ajratilsin.

3. Shahar xalq ta'limi bo‘limi (Hojiqulov), shahar obodonlashtirish boshqarmasi (Bobonazarov), shahar hokimligi bosh hisobchisi (Tursunova), shahar hokimligi moliya bo‘limi (Mamadaliev)larga:

ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish va mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (Mamadaliev),shahar g‘aznachilik bo‘linmasi (Amirov)larga:

shahar mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Egamov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 6 martdagi
VI-80-45-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shahar daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag`lardan amalga oshiriladigan tadbirlar

HISOB-KITOBI

T/p	**Mablag‘ ajaratiladigan tashkilotlar nomi**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi**	**Asos bo‘luvchi xujjatlar**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)**
1	Shahar xalq ta'limi bo‘limiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 5-apreldagi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 27-sonli bayoniga mufoviq Samarqand shahridagi maktablarga Rossiya Federatsiyasidan kelgan 4 nafar xorijiy mutaxassis o‘qituvchilami 2023-yil yanvar-mart oylarida yashash bilan bog‘liq ijara pullarini to‘lab berish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar xalq ta'limi bo‘limi (X.Hojiqulov)ning 2023-yil 3-fevraldagi 01-10/16-sonli murojaati	43 800,0
2	Shahar obodonlashtirish boshqarmasiga	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatimiz qaror va farmonlari ijrosi doirasida aholi turmush farovonligini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar qatorida aholining ehtiyojmand qatlamini na’munaviy loyihalar asosida uy-joy qurib berish zarurati sababli Pastdarg`om tuman hokimligining 2020-yil 6-iyundagi 898-Q-sonli qaroriga asosan Pastdarg`om tuman Do`stlik massivi Kamolot mahallasi hududidan Samarqand shahar hokimligiga ajratilgan 2.0 gektar yer maydonida hashar yo`li bilan qurilayotgan 9 ta yakka tartibdagi turar-joylar qurilishini jadallashtirish uchun quruvchi-ustalarning ish haqi bilan bog`liq xarajatlar uchun	Shahar hokimi o‘rinbosari (R.Olimov)ning 2023-yil 9-fevraldagi bildirishnomasi	250 000,0

3		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining barcha turdagi topshiriqlarini nazorat qilib borish maqsadida idoralararo yagona elektron tizimdan (UNICON-SOFT MChJ) foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi ijro intizomi bo‘yicha bosh mutaxassis (O.Mahmudov) 2023-yil 2-fevraldagi bildirishnomasi	19 273,3
4		Shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tasarrufidagi "Nuroniylar maskani" binosini 2023-yil yanvar-mart oylarida saqlash bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev) ning 2023-yil 7-dekabrdagi 01/1-01/38-645-sonli xati	16 310,8
5		Shahar hokimligi balansidagi 5 ta noturar binolar (O`zbekiston 45, O`zbekiston 45/1, Pushkin 8, Eski Qalandarxona mahallasidagi bino, Beruniy 65-uy) davlat xizmatlari markazidan "Ko`chmas mulkka nisbatan huquqini davlat ro`yxatidan o`tkazish" uchun (BHMninng 5 baravari 5*1500 000= 7 500 000 so`m) hamda Qorasuv massivida Agromir Building MCHJ tomonidan qurilgan turar-joy ko`p qavatli turar-joylardan sotib olingan 20 ta xonadonni "Ko`chmas mulkka nisbatan huquqini davlat ro`yxatidan o`tkazish" (BHMninng 5 baravari 20*1500 000=30 000 000 so`m) bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi xo‘jalik ishlari mudiri (M.Normurodov)ning 2023-yil 30-yanvardagi bildirishnomasi	37 500,0
6	Shahar hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “e-qaror” elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 390-sonli qarorining 2-bandiga *(2021-yil 1-iyuldan boshlab barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo‘ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro‘yxatga olish va e’lon qilish “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshirilishi lozim)* muvofiq shahar hokimligi tomonidan "E-QAROR" tizimidan 2023-yil yanvar-iyun oylarida foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi xo‘jalik ishlari mudiri (M.Normurodov)ning 2023-yil 5-fevraldagi bildirishnomasi	18 000,0
7		Samarqand shahar hokimligi huzuridagi “Binolardan foydalanish uy-joy va yakka tartibda uy-joy qurilish masalalarini muvofiqlashtirish” departamenti DUK ishchi xodimlarining ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga	Samarqand shahar hokimligi huzuridagi “Binolardan foydalanish uy-joy va yakka tartibda uy-joy qurilish masalalarini muvofiqlashtirish” departamenti DUKning 2023 yil 1-fevraldagi 10-sonli murojaati	30 000,0
8		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-427-sonli qarori 4-bandini ijrosini ta'monlash maqsadida shahar mahalliy byudjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federasiyasi tizimida Bolalar sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi to‘g‘risida"gi PQ-427-sonli qarori 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 2-fevraldagi 14/1-3004 XDFU-sonli topshirig‘i	430 000,0

Jami			**844 884,1**